


# MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE

ISOC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES

WWW.INTERONCONF.COM

zenodo OpenAIRE
GERMANY
2022
doi digital object identifier
OPEN ACCESS
GERMANY

**ISBN 978-955-3605-86-4**

© Sp. z o. o. "CAN", 2022
© Authors, 2022

**MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH**: a collection scientific works of the International scientific conference (11 September, 2022) - Berlin:2022. ISSUE 15 – 114p.

Editorial board:

**Alexander Dietrich**
ICRA 2021 Editors
German Aerospace Center (DLR)
Oberpfaffenhofen, Germany

**Tomohiro Kawahara**
ICRA 2021 Editors
Kyushu Institute of Technology, Frontier
Research Academy for Young Researchers
Fukuoka, Japan

**Jana Kosecka**
ICRA 2021 Editors
George Mason University,
Fairfax (VA), USA

**Davide Scaramuzza**
ICRA 2021 Editors
University of Zurich
Zurich, Switzerland

**Barbara Caputo**
ICRA 2020 Editors
Sapienza Rome University
Rome, Italy

**Wolfram Burgard**
ICRA 2018 Editors
Toyota Research Institute and University of Freiburg
Freiburg, Germany

Languages of publication: Deutsche, English, Русский, Limba română, uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference " MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH ". Which took place in BERLIN on 11 September, 2022.

Tagungsbände werden für Wissenschaftler und Lehrende an Hochschulen empfohlen. Sie können in der Ausbildung eingesetzt werden, einschließlich der Lehre im Aufbaustudium, der Vorbereitung auf den Erwerb von Bachelor-und Master-Abschlüssen. Die Begutachtung aller Artikel wurde von Experten durchgeführt, die Materialien unterliegen dem Copyright der Autoren. Für Inhalt, Prüfungsergebnisse und Fehler sind die Autoren verantwortlich.

# PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS

**VOLUME 2 , ISSUE 15**
**SEPTEMBER 2022**

## Collection of Scientific Works

BERLIN 11 SEPTEMBER 2022

GERMANY

**TABLE OF CONTENTS**


| | |
|---|---|
| **Ҳамроева Марғуба Комиловна**<br>**Ёрматова Диларом Ёрматовна**<br>**Баратов Жавохир**<br>*СУРХАНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТУПРОҚ-ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН ЭРТАПИШАР СОЯ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ* | 6 |
| **Ҳамроева Марғуба Комиловна**<br>**Ёрматова Диларом Ёрматовна**<br>**Эргашова Махфуза**<br>*СОЯ НАВИДАГИ ҲОСИЛДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ* | 10 |
| **Хамроева Маргуба Комиловна**<br>**Маллаев Муслим Хушназарович**<br>*КАЧЕСТВО ЗЕРНА СОИ ВЫРАЩЕННОЙ НА ТЕРРИТОРИИ ЮЖНЫХ ОБЛАСТЯХ УЗБЕКИСТАНА.* | 14 |
| **Ҳамроева Марғуба Комиловна**<br>**Азизов Тўхтамиш Аъзамович**<br>**Ҳамроева Олим Баходирович**<br>*СУРХАНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЕТИШТИРИЛГАН ЎРТАПИШАР СОЯ ЭКОТИПЛАРИНИНГ АГРОТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНИШ* | 18 |
| **Зоҳиров Рамиз Турдимуродович**<br>*ОИЛА ТАРБИЯСИДА КЕКСА АВЛОД ВАКИЛЛАРИНИНГ ЎРНИ* | 22 |
| **Убайдуллоева Малика**<br>**Сагдиллаева Зульфия Асаналиевна**<br>*ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ* | 27 |
| **Boydedayev Xurshiddin Husniddin o'g'li**<br>*QANDLI DIABET VA UNI TASHXISLASH USULLARI* | 32 |
| **Субанова Зарнигор Абдинаби қизи**<br>*НОВЫЕ ТЕХНИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ В ВЕНТИЛЯЦИИ ГЛУБОКИХ КАРЬЕРОВ"* | 35 |
| **Ubaydullayeva Yulduz Lutfullayevna**<br>*TAFAKKUR BIRLIGI SIFATIDA KONSEPTNING TILSHUNOSLIKKA TATBIQI MASALASI* | 42 |
| **Ibrohim Fayzullayevich Qayumov**<br>*O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARI TARIXIDAN* | 45 |
| **Qo'shaev Ilhom Axtamovish**<br>*DOSTONLARNING MUSIQIY ASOSINI TASHKIL QIUVCHI OMILLAR* | 49 |
| **Shoniyeva Oyjamol**<br>*FITRAT DEYDIKI* | 53 |
| **Saidmuxamedova Nodirabegim Botirovna** | 57 |

# O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U ASBOBLARI TARIXIDAN

**Ibrohim Fayzullayevich Qayumov**
*Buxoro davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi kata o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Musiqa cholg‘ulari ijrosida har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo‘lib turadi. Ushbu maqolada musiqa cholg‘ulari, cholg‘u ijrochiligining taraqqiyoti tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Musiqa ilmi, cholg‘u ijrochiligi, nag‘ma, qo‘shiqlar, allalar, o‘lanlar, laparlar, doston.*

Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, xususan cholg‘u ijrochiligida milliy musiqa cholg‘ularining ham o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, cholg‘u ijrochiligi musiqa asarlarini paydo bo‘lishida, musiqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelishida asosiy omil hisoblanadi.

Musiqa cholg‘ulari, cholg‘u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg‘ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg‘ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo‘lib turadi. Chunki milliy musiqa cholg‘ularida asosan ko‘proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg‘ulari deb ataladi. Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolaridagi sadolanish bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Masalan: arab, fors, turk, hind, o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman musiqasi va hokazo. Hosil qilingan musiqa sadolaridan biri "nag‘ma" deb atalib, "nag‘ma" ikki xil nomlangan. "Qavliy" bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va "fe'liy" esa sun'iy deb sanalib, ya'ni musiqa cholg'ularidan chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi.[5]

[5] Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent-1963. 12.s.

Xalq musiqa merosidagi, avvalambor milliy cholg‘ularda tarannum etilayotgan kuy – qo‘shiqlar, allalar, o‘lanlar, laparlar, dostonchilik qo‘shiqlari va kasbiy ijrochilikning professional mazmunidagi badiiylashgan madaniy, ma’rifiy va estetik ideallardan yosh avlod tarbiyasida milliy o‘zligiga xos tavsiflar kabi foydalanish va sadolanishlarning yanada chiroyiga erishish, ularni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida kamol topishida, qolaversa, ta’lim va tarbiyani milliy asoslarda barpo etishda poydevor vazifalarini o‘taydi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarida ijro etish san’ati o‘z taraqqiyotining ko‘p asrlik an’analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933-yildagi Ayratom shahristoni arxeologik qazilmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, o‘zidan ilgari turli musiqa asboblari mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Eramiz boshlarida turli tuman xalq cholg‘u asboblaridan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayillarida ijrochilikda keng foydalanilgan. Xalq musiqa cholg‘u asboblari asrlar davomida insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Tasviriy san’at asarlari, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asrdayoq ikki turdagi xalq cholg‘u ansambli mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘rta asrlarda xalq musiqa ijodining og‘zaki an’analari keng tarqalgan bo‘lib, ular cholg‘u musiqasinnig har xil janrlari, turkumlari, rang-barang musiqa san’ati turlari, ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. O‘rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqi o‘laroq uch xil mustaqil uslub kasb etadi.

1) Farg‘ona – Toshkent yo‘nalishidagi (chor maqom)
2) Xorazm ijrochilik yo‘nalishi (olti yarim maqom, panjgoh ham kirgan)
3) Samarqand – Buxoro ijrochilik uslubi, ya’ni shashmaqomdir.
4) Qashqadaryo – Surxondaryo dostonchilik san’atlari

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati rivojlanishi, yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit, Yevropa madaniyati ta’siri bilan bog‘lanadi. XX asrnnig 50-yillaridan yangi sozlarning orkestr tarkibiga kirib kelishi va ularning orkestrdagi imkoniyatlari oshdi.

Shunday qilib, o‘zbek xalq cholg‘u asboblarining paydo bo‘lishi va takomillashining boy tarixi bilan bog‘liq bilimlar, musiqa ijrochilik texnikasi, imkoniyati va taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. 1.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст.59-62.
2. 2.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021
3. 3.IA. Kushaev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
4. 4.IA Kushaev «Music pedagogical dollars of doston art» International Engineering Journal for Research & Development 2020/12/10
5. 5.Ilkhom Akhtamovich Kushaev «Bakhshi art schools and their performing features» Scientific reports of Bukhara State University 2020//3/3 Стр.295-299
6. 6.Илҳом Ахтамович Қўшаев «Мусиқа маданияти дарсларида халқ мусиқаси намуналаридан фойдаланишнинг аҳамияти» Scientific progress 2021/1/5
7. 7.ИФ Каюмов, М Жураева «Место музыки в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся 5-7 классов общеобразовательных школ» Проблемы педагогики 2020.3(48) Стр.17-19
8. 8.QI Fayzullaevich «Culture and art values and aesthetics in formation factors» Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2021/2/25
9. 9.IF Kayumov «Values and aesthetic factors in the formation of culture and art» International Engineering Journal For Research & Development 2020/12/1
10. ИИЎ Ахтамов «Мақом анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари» Scientific progress 2021/1/5.
11. Ibragim Fayzullaevich Kayumov.Xalq qo'shiqlari asoaida boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy malakasini o'stirish usullari. Scientific progress2021/03Б.635-640.
12. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Formation of composing art in uzbek music. Researchjet journal of Analysis and Inuentions.Volume 2,issue 12, december-2021. 61-65.
13. 13.Ибрагим Файзуллаевич Каюмов. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий ахамияти. Science And Education Volime 3, Issue 1 January 2022.849-854.